

**AQLI ZAIF BOLALARNING JAMIYAT BILAN MUNOSABATI****Abdurashidova Dilfuza Akmaljon qizi***NamDPI 1-kurs talabasi**abdurashidovadilfuza4@gmail.com***Ilmiy rahbar D.D.Oribboyeva**

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada aqli zaif bolalarning jamiyat bilan o'zaro munosabati, ularning ijtimoiy moslashuvi va integratsiya masalalari hamda inklyuziv ta'lim tizimida oilaning roli alohida tahlil etilib, aqli zaif bolalarning ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiluvchi omillar ko'rsatilib o'tiladi va jamiyatdagi insonlarning bunday bolalarga nisbatan munosabati, ular bilan muloqot jarayonida qanday munosabatda bo'lishlik va aqli zaif bolalarning shaxs sifatida rivojlanishi va jamiyatga to'laqonli qo'shilishi uchun zarur bo'lgan pedagogik, psixologik yondashuvlarning ahamiyati haqida bayon qiladi.

**Kalit so'zlar:** Aqli zaif, Nogirinlik, Psixologiya, Oligofreniya, Integratsiya, Muloqot, Ijtimoiy faollik, Pedagogik, Inklyuziv ta'lim, Ijtimoiy moslashuv.

**Abstract:** This article analyzes the issues of interaction between children with intellectual disabilities and society, their social adaptation and integration, and separately examines the role of the family within the inclusive education system. Factors that contribute to increasing the social activity of children with intellectual disabilities are outlined, and the attitudes of people in society towards such children, appropriate forms of communication with them, and the significance of necessary pedagogical and psychological approaches for the personality development and full inclusion of children with intellectual disabilities into society are described.

**Keywords:** Intellectual Disability, Disability, Psychology, Oligophrenia, Integration, Communication, Social Activity, Pedagogical, Inclusive Education, Social Adaptation.

**Аннотация:** В данной статье анализируются вопросы взаимодействия детей с умственной отсталостью с обществом, проблемы их социальной адаптации и интеграции, а также отдельно рассматривается роль семьи в системе инклюзивного образования. Указываются факторы, способствующие повышению социальной активности детей с умственной отсталостью, описывается отношение людей в обществе к таким детям, каким должно быть общение с ними и каково значение необходимых педагогических и психологических подходов для развития личности и полноценного включения в общество детей с умственной отсталостью.

**Ключевые слова:** *Умственная отсталость, Инвалидность, Психология, Олигофрения, Интеграция, Общение (Коммуникация), Социальная активность, Педагогический, Инклюзивное образование, Социальная адаптация.*

Zamonaviy jamiyatda nogironligi bo'lgan bolalarga, xususan, aqli zaif ya'ni oligofren bolalarga nisbatan munosabat va ularni qo'llab-quvvatlash tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning jamiyatga moslashuvi, teng huquqli qatnashuvi hamda shaxs sifatida rivojlanishi nafaqat ta'lim tizimiga, balki butun jamiyatning madaniy va ijtimoiy darajasiga bog'liq. Aqli zaif bolalar -intellektual rivojlanish darajasi normadan past bo'lgan, ya'ni aqlan qoloqlikning eng yuqori darajada holatlarda bo'lsa ham bunday bolalar to'g'ri tarbiya va ta'lim orqali jamiyatda o'z o'rnini topishi mumkin bo'lgan shaxslardir. Shuning uchun ularning jamiyat bilan o'zaro munosabatini chuqur o'rganish va ularning sog'liqlari yaxshilanishida katta ahamiyatga ega. Aqli zaif bolalarning ijtimoiy munosabat shakllanishi ular uchun qiyin jarayon hisonlanadi va ularda muloqot qilish, ijtimoiy qoidalarni qabul qilish va shaxslararo munosabatlar o'rnatish jarayonida turli xil muommalarga duch kelinadi, keltirish mumkin: psixologik xususiyatlar, oila muhiti, ta'lim tizimi, jamiyatning qabul qilish omillarini.

1.Psixologik xususiyatlar-diqqatning tarqoq bo'lishi, tafakkur jarayonining sekinligi, nutq rivojining cheklanganligi.

2.Oila muhiti ota-onaning munosabati, qo'llab-quvvatlash darajasi va tarbiyaviy yondashuvi.

3.Ta'lim tizimi-maxsus ta'lim, rehabilitatsiya dasturlari, inklyuziv ta'lim muhitining mavjudligi.

Jamiyatning qabul qilishi-stereotiplar, diskriminatsiya yoki aksincha, ijobiy qo'llab-quvvatlash. Mazkur omillarning barchasi bolaning o'ziga bo'lgan ishonchi va jamiyatga integratsiyalashuviga bevisita ta'sir kòrsatadi.

Aqli zaif bolalarni jamiyat muhitiga qo'shilishini oshirish maqsadida hozirda inklyuziv ta'limlar tashkil etilib, rivojlantirilmoqda. Inklyuziv muhitda bunday bolalar uchun me'yorda bolalar bilan birgalikda o'qish, iltimoiy tajriba almashish, muloqot ko'rikmalarini rivojlantirish, jamiyatga moslashish holatlarini tezlashish jarayonlarini oshiradi. Ya'ni bunday ta'limda nuqsonli bolalar sog'lom bolalar bilan qanday munosabatda bo'lishligini, o'zini qanday tutish kerakligini o'rganishadi. Bunday bolalarga jamiyatdagi munosabatlarning ijobiy yoki salbiyligi bolaning ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta'sir kòrsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki: Ijobiy munosabat va va qo'llab quvvatlash mavjud bo'lgan muhitda bolalarning o'ziga bo'lgan ishonchi oshadi.

Salbiy munosabat, masxara yoki chetlab q'yish esa psixologik holatiga zarar yetkazadi, ijtimoiy faollikni pasaytiradi. Shuning uchun jamiyat a'zolari, ayniqsa

pedagoglar va ota-onalar aqli zaif bolalarga nisbatan to'g'ri noydashuvni shakllantirishi zarur.

Aqliy (intellektual) rivojlanishiga ko'ra bunday bolalar uch darajada namoyon bo'ladi.

1. Yengil darajadagi aqli zaiflik
2. Imbetsillik
3. Idioliya

Aqlan zaiflikning yengil darajasidagi bolalarni tashqi ko'rinishiga qarab me'yorda rivojlangan tengdoshlaridan ajratib bo'lmaydi. Ularning ko'pincha o'qishi ommaviy maktabni birinchi sinfida boshlaydi biroq kasalligi sababli tengdoshlaridan ortda qolish holatlari kuzatiladi. Umuman, mulohaza va shaxsiy fikr bildirishda ancha qiynaladi, biroq ular sanoat, qishloq xo'jalik, ishlab chiqarish va maishiy xizmat sohasida oddiy turdagi mehnat bilan shug'ullana oladi. Tarbiyachi va o'qituvchilar yengil darajadagi aqli zaif bolalarni boshqa bolalardan ajratib olib, ularni maxsus bog'cha va maktablarda tarbiyalanishi va ta'lim olishini yokida integratsiyalashgan ta'limga jalb etishlari lozim.

O'ta og'ir darajadagi bolalar o'z - o'zini uddalay olmaydi. O'ziga xos xizmat ham qila olmaydi. o'rta va og'ir darajadagi bolalar o'ta og'ir bolalarga qaraganda nisbatan yaxshi rivojlangan bo'lsa ham, biroq mustaqil hayot kechira olmaydi. Maxsus ta'limdagi bolalar uchun davlat tomonidan maxsus dars jadvali va qiziqarli darsliklar ishlab chiqilgan. Bundan asosiy maqsad ular sog'lom bolalar kabi oddiy darsliklarni qunt bilan o'qiy olmasligi va ular uchun bu murakkablik qilishi mumkin. Bunday bolalar uchun har ikki soat dars jarayonidan so'ng, turli o'yinlar va sog'lomlashtiruvchi mashqlar bilan shug'ullantirishi zarur.

Oligofren bolalar vaziyatni yetarli darajada anglay olmaydilar, xatti-harakatlarni vaziyatga qarab o'zgartira olmaydilar. Ularda o'z - o'ziga va atrofdagilarga nisbatan tanqidiy munosabat birmuncha sust bo'ladi. Yuqorida ko'rsatilgan bir qator kamchiliklarga qaramay, oligofren bolalar bilan to'g'ri tashkil etilgan maxsus ta'lim-tarbiya ishlari natijasida defektologlar ularni mustaqil hayotga tayyorlash, kasb-hunarga o'rgatish borasida katta yutuqlarga erishmoqdalar. Maxsus yordamchi maktablarda ta'lim- tarbiya olib chiqqan bolalar hayotida o'z o'rnini topib, sanoat hamda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining turli sohalarida, maishiy xizmat sohasida faol mehnat qilib yashamoqdalar. Tarbiyachi va o'qituvchilarning muhim vazifasi - aqli zaif bolalarni boshqa alohida yordamga muhtoj bolalardan ajratib, ularni iloji boricha ertaroq tegishli muassasalarda ta'lim - tarbiya olishlarini ta'minlab berishdir.

Aqli zaif bola psixologiyasi ularning tarbiyasi va rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar va pedagoglar ularning xususiyatlarini hisobga olgan holda, ikki taraf lama munosabatlar yaratish orqali bolalarning emotsional, ijtimoiy va intellektual rivojlanishini ta'minlashlari kerak. Aqli zaif bolalarni qo'llab-quvvatlash, rivojlantirish va ularning hayot sifatini oshirish ularning kelajagi uchun juda muhimdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abidova N.Z. Maxsus psixologiya (Tiflopsixologiya). -T.: Barkamol fayz media, 2017.
2. Rahimova V.S Defektologiya asoslari (korreksion pedagogika). Toshkent-2017, "NISO POLIGROF"
3. Pulatova P.M. va boshqalar. Maxsus pedagogika. T.: Fan va texnologiyalari, 2014
4. Л. С. Волкова, Р. И. Лалаева, Е. М. Мастюкова va boshq. (qarovchi: Л. С. Волкова, С. Н. Шаховская) Логопедия. Учебник для студентов дефектологических факультетов педуниверситетов 1998
5. Д. Д. Ориббоева, М. М. Адашалиева Вопросы внедрения и развития инклюзивного образования в странах центральной азии // «Ёш олимлар ахборотномаси» – «Вестник молодых ученых». 2025. №. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/voprosy-vnedreniya-i-razvitiya-inklyuzivnogo-obrazovaniya-v-stranah-tsentralnoy-azii> (дата обращения: 13.10.2025).
6. Oriboyeva, D. D., & Assertiv, S. B. Q. G. A. (2024). xulq shakllanishining o'ziga xosligi. Science and Education, 2.
7. Oriboyeva, D. (2024). BULLING O'SMIRLARDA DOLZARB MUAMMO SIFATIDA. Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal, 1(12), 115–117. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/universaljurnal/article/view/58095>
8. Oriboyeva, D. D. (2020). Social competence as an integral part of the teacher's professional maturity. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(11), 347-353.
9. Munira, V., & Sodiqjonovna, M. X. (2024). Bolalarda yuvinel revmatoid artrit kasalligining kelib chiqishi hamda uning oldini olish choralari. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 15(1), 33-35.
10. Орифбоева, Д. Д., & СРЕДНЕЙ, О. ШКОЛЕ//Форум молодых ученых. 2017. № 6 (10). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/optimizatsiya-uchebno-poznavatel'nogo-protssessa-v-sredney-shkole> (дата обращения: 31.03. 2025).
11. Abdurashidova, Dilfuza Akmaljon Qizi, and D. Oriboyeva. "Nutqida nuqsoni bor bolalarning psixologiyasi." Science and Education 6.10 (2025): 579-583.
12. Sadirdinova, V. M. (2023). Formation of speech imitation in children with severe degree of motor alalia. Open Access Repository, 4, 316-320.
13. Sadirdinova, V. M. (2023). Features of the formation of imitation of speech in children with alalia speech defects. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(12), 1001-1004.
14. Munira, V., & Sodiqjonovna, M. X. (2024). Bolalarda yuvinel revmatoid artrit kasalligining kelib chiqishi hamda uning oldini olish choralari. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 15(1), 33-35.

15. Vaxobova, M. (2024). O'smirlarning ota-onalari bilan munosabatlaridagi muammolar. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 4, 53-57.
16. Munira, V., & Shoxistaxon, T. (2024). Bolalar nutqining rivojlanishida atrof muhit va oilaning ahamiyati. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 15(1), 51-69.